

SOKINLIK SHE'RI

Og'abek Xamroqulov

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.09.2025

Revised: 29.09.2025

Accepted: 30.09.2025

KALIT SO'ZLAR:

Qoyalar quladi, tog'lar cho'kdi tiz,
Cho'qqilar egilib qoldilar barvaqt.
Yulduzlar o'chdilar, koinot nursiz,
Osmonga qara!

Yedirilgan dunyo bir burchagida
Soviydi qanotlar, parvozlar cho'kkan.
Izg'irin izillab yurgan kechada
Bir eski fonusning uyqusi o'chgan .

Deraza ichida qop-qora tuman,
Kemaning ichida miltillaydi cho'g'.
Tunning tinchligini buzgan kim ekan?
Menimcha bolakay uxlagani yo'q.

Deraza yonida eski karavot,
Karavot ustida o'yinchoqlar ham.
Bolakay quvongan , sehrli hayot,
Tunda tirilarkan o'yinchoqlar ham.

Fonusning tagida qari o'rindi ,
Sira qor yog'magan usti qup-quruq.
Qancha muhabbatlar, qancha yolg'izlik
O'tirmagan deysiz.
Zanjiri yuliy.

Qari eman bag'ri kichkina g'ovak,
Pishillab uxlaydi erka olmaxon.
Nur sochar, fonusning qalbida demak
Biror o'tli kunni unitolmagan.

Sovuq ham, shamol ham, qor ham,
Iliqlik ulashar kichkina yog'du.
Uchmayotgan fonus yuragimdagi
Umidlarim, orzu-hayollarim bu.

